

Xabibullayen Shaxzodbek Raximjon o'g'li

*Toshkent davlat transporti universiteti aviatsiya muhandisligi fakulteti 3-kurs talabasi.*

Mirgulshanbekov Hiloliddin O'ktamjon o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq fakulteti 3-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** *ICAO haqida umumiy ma'lumotlar, ICAO xalqaro hujjatlari bilan qisman tanishish va ulardagi o'zgarishlarnig muhokamasi, ilovalarning guruhlariga bo'linish turlari va ma'lum bir ilovalarga boshqa tashkilotlarning takiflari.*

**Аннотация:** *общие сведения об ИКАО, частичное ознакомление с международными документами ИКАО и обсуждение изменений в них, виды группировки приложений и квалификаций других организаций к конкретным приложениям.*

**Annotation:** *general information about ICAO, partial familiarization with international ICAO documents and discussion of changes in them, types of grouping of applications and qualifications of other organizations to specific applications.*

**Kalit so'zlar:** *ICAO, ICAO SARPS, ilova, litsenziya, havo kemalari, fuqaro aviatsiyasi, Uchuvchilar, Dispatcher, kamchiliklar, takliflar.*

**Ключевые слова:** *ИКАО, ИКАО SARPS, пристройка, лицензия, авиалайнер, гражданская авиация, пилоты, диспетчер, недостатки, предложения.*

**Keywords:** *ICAO, ICAO SARPS, annexe, license, airliner, civil aviation, pilots, dispatcher, disadvantages, suggestions.*

## KIRISH

ICAO (international civil aviation organization)- xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti. 1944-yil 7-dekabrda asos solingan bo'lib Kanadaning Monreal shaxrida joylashgan va rasmiy tili sifatida Arab, Xitoy, Ingliz, Fransuz, Rus va Ispan tillari xisoblanadi. Endilikda keltrilgan ma'lumotlar esa ICAO tomonidan keltrilgan: konvensiya shartlariga ko'ra, tashkilot qo'mitalardan tashkil topgan va kotibiyatdan iborat meyyoriy a'zolik kengashlardan tashkil topgan bo'lib bularning bosh direktorlari va bosh kotib xisoblanadi.<sup>1</sup> Xozir esa 69 yoshli italyalik (Italya fuqarosi) Salvatore Shakkitano (Scacchitano). ICAO ning 6- kengash prizidenti bo'lib 2019-yil 25- noyabr oyida saylangan xolda, 2020-yil 1- noyabrdan boshlab uning kengash prizidenti 3-yil muddatga saylangani haqida xabar berilgan Endi, ammo 2022-yil 3- yillik uchun qayta saylangan. Uning bosh tashkiloti (parent organization) esa (United nations) yani BMT (Birlashgan Milatlar tashkiloti). BMT xukumatlar aro tashkilot bo'lib uning maqsadi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantrish, xalqaro hamkorlikka erishish va davlatlar harakatini uyg'unlashtirish markazi bo'lib xizmat qiladi. (UN.org) Xozirda esa ICAO ga a'zo bo'lgan davlatlar soni 191 tani tashkil etadi. ICAO o'z ichiga quydagi majbutiratlarini oladi: Xavfsizlik registratsiyasi, parvozga

<sup>1</sup> PRODUCTS & SERVICES CATALOGUE 2021 [icao.int/store](http://icao.int/store)

yaroqlilik iqtisodiy isrofqarchilikni oldini olish, raqobatni adolatli bo'lishi, aviatsiyani qonun bilan taminlash.

**MATERIALLAR VA METODLAR**

**ASOSIY**

ICAO majburiyatining har bir sohasi uchun ICAO SARPS (Standards and Recommended Practices) 19 ta ilovada keltirilgan. Har bir ilova ma'lum bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqiladi. Ularning barchasi muntazam ravishda o'zgartirishi kerak va ularning kopchiligiga oid tavsilotlar ICAO hujjatlari seriasidagi nashirlarda mavjud.

Ilovalar	Standartlari
Ilova-1	Shahslarni litsenziyalash
Ilova-2	Havo qoidalari
Ilova-3	Metrologiya xizmatlari
Ilova-4	Aeronavtika xaritalari
Ilova-5	O'lchov birliklari
Ilova-6	Havokemalaridan eksplutatsiyasi
Ilova-7	Milliy Havo kemalari va ularni ro'yhatga olish
Ilova-8	Havo kemalarini parvozga yaroqliligi
Ilova-9	Ko'maklashuv xizmatlari
Ilova-10	Aeronavtika va telekommunikatsiyalari
Ilova-11	Havo harakati xizmatlari
Ilova-12	Qidiruv va qutqaruv ishlari
Ilova-13	Havo kemasidagi avariya hodalari va ularni organib chiqish
Ilova-14	Aeroportlar
Ilova-15	Aeronavtika axborot xizmatlari
Ilova-16	Atrof-muhitni muhofoza qilish
Ilova-17	Xavfzilik
Ilova-18	Xavfli yuklarni havo transportida havfsiz tashish
Ilova-19	Xavfsizlikni boshqarish

Bu ilovalarnig har biri keng qamrovli bo'lib hozirda malum bir qismini asosiy vazifa va majburiyatlari keltirib o'tilgan:

1-ilovada <sup>2</sup>Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti tomonidan xodimlarni litsenziyalashning minimal standartlarti sifatida qabul qilingan va tavsiya etilgan amaliyotlar mavjud. Ilova ushbu hujjatda ko'rsatilgan litsenziyalar va reytinglarning barcha egalariga va yangilanganda barcha da'vogarlarga nisbatan qo'llaniladi, jumladan Uchuvchilar va masofaviy uchuvchilar uchun litsenziyalar va reytinglar, Uchuvchilar uchun litsenziyalardan tashqari parvoz ekipaji a'zolari uchun litsenziyalar, personal uchun specification (tehnika harakterlarga ko'ra) litsenziyalar, tibbiy qoidalar uchun litsenziyalar va hozirda aytib o'tilgan litsenziyalash turlari o'z navbatida yana bir qancha qsimlarga bo'linadi

2- ilovada asosiy qoidalar <sup>3</sup>sifatida shahslar va mulkni himoya qilish, to'qnashuvlarni oldini olish, parvoz rejalarini, signallar, vaqt, havo harakatini boshqarish servislari, noqonuniy

<sup>2</sup> 1-ilovada; Annex-1 to the convention on international civil aviation ch-2.3.5.6

<sup>3</sup> 2- ilovada asosiy qoidalar; Annex 2 to the Convention on International Civil Aviation Rules of the Air CHAPTER 3. General rules ..... 3-1.

aralashuvlar, (Interception) ushlanib qolish, ko`ra olish darajasi va bulutlardan minimal masofa.

3- ilovada Meteorologik kuzatuvlar va hisobotlarni<sup>4</sup> o`z ichigan, Aeronavtika meteorologik stansiyalari va kuzatuvlari, Havo harakatiga xizmat ko`rsatish organlari va meteorologiya organlari o`rtasidagi kelishuv, Muntazam kuzatuvlar va hisobotlar, Maxsus kuzatishlar va hisobotlar, Hisobotlarning mazmuni, Meteorologik elementlarni kuzatish va hisobot berish, Avtomatik kuzatuv tizimlaridan meteorologik ma'lumotlarni hisobot qilish, Vulqon faolligining kuzatuvlari va hisobotlari.

4- ilovada aeronavtika haritalarining <sup>5</sup>asosiy karakteristikalariga haritalar uchun opiratsiyaning asosiy talablar, titular, turli hil informatsiyalar, belgilar, o`lchov birliklari, masshtab va proyeksiyalar, aeronavtika malumotlarining amal qilish muddati, geografik nomlarning yozilishi, qisqartmalar, siyosiy chegaralar, rang, yengillik, havfli hududlar, havo harakatiga xizmat ko`rsatish havo bo`shliqlari, magnit o'zgarishi va yana boshqalari kiradi. Hozirda keltirib o`tilgan ilovalar ICAO kompaniyasi buyicha ishlab chiqilgan kitoblardan olingan asosiy qismi hisoblanadi.

### NATIJA

Ushmu ilovalarnig mukammaligiga qaramasdan aviatsiyada kam oz bolsada kamchiliklar kuzatilishni davom etdi misol uchun: 1990-yillarning boshlarida turli “ICAO SARPs” hisobotlari davlatlar tomonidan amalga oshirilmaganligi, Davlat havsizlik nazoratini yetishmasligi oqibatida bahtsiz hodisalarning oldi olinmasligi, butun dunyo bo`ylab aviatsiya havfsizligiga erisha olish harakatlarini chegaralanganligi kabilar misol bula oladi. ICAO dasturinig evalutsiyasiga esa: “Ixtiyoriy baholash dasturi 1995 – 1998 1, 6, 8-ilovalar, 88 So`rovlar, 67 Baholash Ilova bo`yicha yondashuv”, “Majburiy audit dasturi A-32/11 1999 – 2004.181 Auditlar,162 Kuzatuvlar, 1, 6, 8-ilovalar Ilovalar bo`yicha yondashuv”, “Kompleks tizimli yondashuvA-35/6 2005 y, Xavfsizlik bilan bog`liq barcha qoidalarda, barcha Ilovalar (9 va 17-dan tashqari hammasi).<sup>6</sup>

### MUHOKAMA VA XULOSA

<sup>7</sup>ICAO doc(hujjat)-10106 avvalgi ICAO doc-7192 almashtirdi bu hujjatlar Parvoz Operatsion xodimlari va parvoz dispatcherlari haqida keltirilgan edi. Shunga qaramasdan ICAO Doc-10106 2020 yil dekabr oyida qayta nashr etilganligi haqida habar berilgan. Vaholanki, biz hali hamon ICAO o`qiv qullanmasidan doc-7192 haqida havolalarga ko`zimiz tushadi. IFALDA (International Federation of Air Line Dispatchers Associations) ning fikricha hozirgi ortiqcha havolalar ko`plab chalkashliklar keltirib chiqarishi mumkun masalan doimiy audit va o`quv dasturlarida. Shuningdek, IFALDA hozirda ICAO va boshqa manfaatdor tarafdorga mavzu bo`yicha taklif kiritishga tayyor ekanligini habar bergan, bunga ko`ra ICAO ning 1,6 ilovalarini Ichi ilovaga mos kelishini ko`rib chiqish va yangiliklar kiritish kabilarni o`z ichiga oladi.

<sup>4</sup> Annex 3 to the Convention on International Civil Aviation Meteorological Service for International Air Navigation CHAPTER 4. Meteorological observations and reports ..... 4-1

<sup>5</sup> aeronavtika haritalarining <sup>5</sup>asosiy karakteristikalariga CHAPTER-2. 2-1

<sup>6</sup> SOA - November 2006. P-6.7

<sup>7</sup> ASSEMBLY — 41ST SESSION p-3

1- ICAO (international civil aviation organization)- xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti rasmiy saytida keltirilgan malumotlar

2- 1-ilovada; Annex-1 to the convention on international civil aviation ch-2.3.5.6

3-Annex 2 to the Convention on International Civil Aviation Rules of the Air  
CHAPTER

4-General rules . . . . . 3-1.

5-aeronavtika haritalarining 'asosiy harakteristikalariga CHAPTER-2. 2-1

6-SOA - November 2006. P-6.7

7-ASSEMBLY – 41ST SESSION p-3

8-ICAO production and service cotologue 2021 icao.int/store

9- Extended Diversion Time Operations Manual